

5-SINF “ONA TILI” DARSLIGI UCHUN MATN TANLASHDA SAVODXONLIKNI OSHIRISH O‘RNI VA AHAMIYATI

Nishonova Maftuna Ahror qizi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti ona tili va adabiyoti fakulteti 2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kunda aynan 5-sinf ona tili darsligi uchun qanday matnlar tanlanishi, uning mohiyati hamda tanlanishi kerak bo‘lgan matnning ilmiy izchilligi nimada ekanligi, bu jarayonda kechadigan muammolarni va ularni bartaraf etish ifodalangan. Shuningdek, bu maqolada bolaning savodxonligini oshirishda foydalaniladigan metod o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: savodxonlik, mantiq, unsur, persepsiya, ekstralingvistik omillar, matn tamoyili, zanjir, lingvistik talab

Nishonova Maftuna Ahror girl, 2nd year graduate student, Faculty of Mother Language and Literature, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Abstract

In this article, what kind of texts are chosen for the 5th grade mother tongue textbook today, what is its essence and the scientific consistency of the text to be chosen, the problems encountered in this process and their elimination are expressed. Also, this article describes the method used to improve the child’s literacy.

Keywords: literacy, logic, element, linguistic factors, text principle, chain requirement.

KIRISH(INTRODUCTION)

Bugungi kun uchun dolzarb hisoblangan maktab o‘quvchisi uchun matn tanlash va uni qo‘llash jarayoni turli metodlar asosida amalga oshirilishi kerak. Bola matn tanlanganda matnning nimasiga diqqat qaratishi kerak, xulosa chiqarishida va mantiqiy fikrlashida nimalarga e‘tiborli bo‘lishi lozim buni ko‘zdan qochirmaslik lozim. Matn tanlashda olimlarning fikriga asosan, matn bolaga xulosalashga yordam beradigan holatda bo‘lishi, turli mavzu ko‘rinishida namoyon bo‘lishi kerak.

Matn tanlashning o‘quvchilar hayotida va ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni, tilning ijtimoiy xoslanishi va vazifasini o‘rganishdan iborat. Qolaversa, lingvodidaktik yo‘nalishning shakllanishi va taraqqiyoti madaniyat tushunchasini til va jamiyat yaxlitligining o‘ziga xos shakli sifatida tushunishga intilish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR(METHODS)

Bugungi kunda bilimga asoslangan jamiyatda axborotni izlash, saralash va qabul qilish, tushunish va uni tahlil qilish, tavsiflash, tuzish va qayta ishlash muhim aqliy ko'nikmalarni egallashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

ToshDSHI Sharq filologiyasi fakultetining qishki ta'til rejasiga muvofiq, Eron-afg'on filologiyasi kafedrasida professori, pashtunshunos olim, filologiya fanlari doktori R. Inomxo'jayev "Darslik va o'quv qo'llanmalarini shakllantirishda matn tanlash" mavzusida fakultet professor – o'qituvchilariga mahorat darsi o'tib berdi. Unda olim o'rganilayotgan tildagi matnlar saviyasi va sathi, ularni qaysi jihatlariga ko'ra tanlab olish zarurligi, darslik yaratishda matnlar asosida mashqlarni shakllantirish, interaktiv usullarni darsda qo'llash uchun matndan qaysi usullarda foydalanish kabi ko'plab masalalar haqida atroflicha so'zlab berdi. Ayni damda darslik, o'quv qo'llanmalar yaratayotgan fakultetning barcha o'qituvchilari uchun bu masala juda manzur bo'ldi hamda kelgusida ustozga bu bo'yicha yana bir bor mahorat darsi o'tib berish taklifi berildi.

Turli olimlar ham matn tanlashda turli qoidalarni tavsiya qilishgan. Misol uchun Jacquelynn S. Poppning matn tanlashda quyidagi tavsiyalariga diqqat qaratishimiz kerak:

1. Matnning turli xillaridan foydalanish
2. G'oya va ma'lumotlarning boyligi, chuqurligi, yuqori sifatli matn tanlash.
3. So'zni tanib olish va tushunish qiyin bo'lgan matnni tanlang.
4. Matn tanlashda uning lingvistik talablarini hisobga olish kerak (so'z, dekodlash, jumlaning murakkabligi...)

NATIJARLAR(RESULTS)

Matn tanlash jarayonidagi vaziyatlar o'quvchining lug'at bilan ishlashdagi mahoratini ham shakllantiradi. Tanlangan matn o'quvchilar fikrini va nutqini o'stirishda, axloqiy tarbiyani amalga oshirishda, rivojlanayotgan o'quvchining malakasini boyitishda, salohiyatini belgilashda alohida ahamiyatga ega va o'z o'rnini belgilaydi. Matn tanlash ularning so'z boyligi va lug'at ustida ishlash metodikasini boyitishda yuqori darajada turadi. Ayniqsa, maktab yoshidagilar uchun badiiy asarlardan tanlangan matnlar ularning nutqini va lug'atini boyitishda eng ishonarli manba hisoblanadi.

Ona tili darsligida matn tanlashning tadqiqiy usullari va ularning shakllari hamda qonuniyatlari mavjud. Biror bir matn kompozitsiyasi qurilishining qoliplashganlik darajasini aniqlash uchun matnning ichki tuzilishini tahlil etish bilan chegaralanib qolish to'g'ri emas, balki turli turkumdagi matnlar qatorini qiyoslash amalidan ham foydalanish kerak bo'ladi. Matn ayni jarayonda ichki tuzilishi va qoliplashganligiga

ham ahamiyat berilishi lozim. Matn tanlanishining qanday tadqiqiy usullar va yo‘llar bilan bayon etilishi va taqdim etilishi turli kommunikatsiyalarni amalga oshirishda kerak bo‘ladi.

MANTIQ

MA'NO

HAJM

Amalga oshirilayotgan islohotlar va ta'lim jarayonidagi tadqiqotlar natijasida har bir o'quvchilarning matn ustida ishlashga o'rgatish har birida adabiy-estetik tahlil malakasi va ko'nikmasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim jarayonidagi samaradorlikni yuqoriga ko'tarishni nazarda tutgan holda amalga oshiriladi. Tildagi samaradorlikni oshirish badiiy adabiyot bilan integratsiya qilinishuvi jarayonida yuzaga keladi, ya'ni fanlararo integratsiyalashuv desa ham bo'ladi. Samaradorlikni oshirishda o'zbek adabiyotidan tanlangan matnning dolzarbligi quyidagi holatlarda ko'zga tashlanadi:

- O'zbek adabiyotidagi tanlangan matn o'quvchilar tomonidan anglanishi jarayonida taqdim etilayotgan asar matnining to'liq mazmuni, undagi ifodalanayotgan tasviriy ifodalari bilan tanishtirish;

- Asar matnidagi voqealarning tub burilish jarayonlarini o'zaro bog'lanishlarini qayd qilish, asardagi obrazlarning holatlarini baholash, eng asosiysi asar matnining qurilishini tahlil qilish;

- Asar tahlili jarayonida matnning birikish usullari va grammatikasini belgilash, asar matnidan kelib chiqadigan g'oyaning tub burilishini aniqlash;

- Savodxonlikni oshirishda bizga taqdim etilayotgan matnlar ustida ishlashning mukammal hisoblangan turlari (matndan savol tuzishga o'rgatish, matnni qanday tasvirlash, matn asosida mustaqil reja tuzish, matndan kelib chiqadigan topshiriqlar ustida ishlash, mantiqiy fikrlash) dan foydalanishga o'quvchilarni yo'naltirish.

Bu jarayonda tanlanayotgan o'zbek adabiyoti matni bilan o'quvchi oldindan tanish bo'lishi yoki matnga aloqador bo'lgan savol va topshiriqlar bilan boshlash kerak. Oldin shu matnga oid ma'lumotlarni o'quvchida hosil qilinishiga erishilishi pedagog o'qituvchining mahorati hisoblanadi. O'quvchi matnni o'qish jarayonida nimaga tushundi va qanday savollar paydo bo'ldi? O'quvchiga matn berilishidan oldin

qisqacha axborotga ega bo'lishi shart. Shundagina matndan anglashiladigan g'oya va mazmuni o'quvchi farqlay oladi. Bunda ona tili va adabiyot integratsiyalashuv jarayonida amalga oshiriladi. Bolaning mantiqiy fikrlashiga va savodxonligini oshirishga erishiladi.

Bolaning qiziqish ko'nikmasini bilish uchun matn o'qitish bosqichlari tekshiriladi. Matnning ma'nosini tushunish uchun matnning bir nechta qism va bo'laklarini birlashtirish, mazmuni yoki shaklini o'zi uchuntanish bo'lmagan matn murakkab matnlarni aniq tushunish, matnni o'qish jarayonida bolaning mustaqil fikrlay olishi, undan kerakli xulosalar chiqara olishi, matnni taqqoslash, tanlangan matn va boshqa matnlardan bir qancha turli matnlarni ma'no va mazmun jihatdan birlashtirish ko'nikmalari tekshiriladi.

Bu jarayon bizga juda ham kerakli hisoblanadi. Chunki ona tili ta'limida matn tanlashning qulay yo'li boshqa fan sohalari bilan integratsiya qilish jarayonida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'qish savodxonligini oshirish uchun ham bir nechta mezonlar mavjud:

- O'quvchi uchun tushunarli matn tanlanishi;
- Matn rasmi, jadval, chizma shaklida aks ettirilishi;
- Tayyor matnlardan unumli foydalanish;
- Badiiy asarlardan parcha olish;

–Tanlanayotgan matn har bir o'quvchini fikrlashga, matndan kelib chiqqan holda izlanishga, kelib chiqadigan muammoning yechimini topish uchun yo'nalish beradigan matn bo'lishi kerak.

–Asosiysi matnning sarlavhasiga qarash lozim.

Matndan xulosa chiqarishda ham birinchi navbatda matnning sarlavhasi ham ahamiyatli hisoblanadi, bu juda muhim. Sarlavha ham matnning mazmuni bilan birikishi, matndan kelib chiqadigan xulosa sarlavhadan namoyon bo'lib turishi kerak. Matnning sarlavhasi o'quvchini fikrlashga undaydigan bo'lsa juda ham yaxshi. Chunki bolada savol paydo bo'lishi mumkin sarlavhadan, natijada bola matnning to'liq versiyasi bilan tanishadi, fikr yuritishni boshlaydi. O'qib tushunish ko'nikmasi shakllanadi.

MUHOKAMA(DISCUSSION)

Savol va topshiriqlar va rasmi tasvirlar bilan matn nima haqida ekanligi o'quvchilarda tushuncha hosil qilinadi. Rasmlar asosida fikr almashib boriladi, tasavvur hosil qilinadi. Tanlangan matnning tuzilishiga qarab, matndan kelib

chiqadigan mantiqiy izchillikni ko'zdan qochirmaslik kerak. Matn tanlashda matnning sarlavhasining mazmuni ham bola uchun fikrlashga arziydigan bo'lsagina, bolaning fikrlashiga turtki bo'ladi.

XULOSA(CONCLUSION)

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, matn tanlanishida sarlavhasidan undan chiqadigan xulosagacha e'tiborli bo'lish kerak. Bolani mantiqiy fikrlashga undaydigan, matndan yana boshqacha fikrlarni bera oladigan darajada izchillikda tuzilgan matn bo'lsa, pedagog tanlayotgan matnidan qanday maqsad qilayotgan bo'lsa, maqsadiga erisha oladi. Pedagog ko'zlangan maqsadga erishishi uchun, u avvalambor matnni tanlashdan oldin nimani va qanday reja va maqsad asosida yuzaga chiqarayotganini, undan kelib chiqadigan muammolarni bartaraf eta oladigan darajada manbaga ega bo'lishini ta'minlashi kerak. Tanlanayotgan matning nima maqsadda, kimyoki nimaga qarab tanlanishi kerakligi nazardan chetda qolmasligi lozim. Matnning mazmuni, hajmi, nimaga xizmat qilishi, qanday natijani berishiga qarab tanlash kerak. Matnni axborot, xabar berish maqsadida yoki bilim berish yoki tarbiyalash yoki til va nutq ko'nikmalarni rivojlantirishga qarab turlicha mavzu, hajmdagi matnni tanlash kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik.2-jild.-T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006.587-b.
2. Hakimov M. O'zbek milliy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. Filol.fan...dis. –Toshkent,1993,7-b.
3. Hakimova M.K. O'zbek tilida vaqt ma'noli lug'aviy birliklar va ularning matn shakllantirish imkoniyatlari. Filol.fan.nomz...dis. –Farg'ona, 2004, 103-b.
4. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Filol.fan.nomz...dis.-Toshkent, 2008.
5. Yo'ldoshev B. Matnni o'rganishning lingvostatistik metodlari. –Samarqand, 2008. –B. 26.

Internet materiallari:

1. <https://fayllar.org-azimova-maftuna...>